

Savollar:

1. Qaychi va qog'oz bilan ishlashning qanday qoidalarini bilasiz?
2. Qaychi bilan qanday muomala qilish kerak?
3. Qog'ozdan qanday foydalanish lozim?

Amaliy qism (25 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

Darsning bu qismi ham tuzilish bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholaydi.

2-dars. Origami Kit

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- qaychi va qog'oz bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlarni to'g'ri ketma-ketlikda bajarish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: ko'k rangli qog'oz varag'i, qaychi, darslik, buyum namunasi.

Tashkiliy qism (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Origami nima?
2. Bu san'at qayerda paydo bo'lgan?

Sizningcha, origami texnikasida ishlash sizga qanday foyda keltirishi mumkin? (O'qituvchi origami texnikasida ishlash o'quvchilarning barmoqlari va qo'llarini mashq qildirishi, shuningdek, konstruksiyalash va obrazli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi haqida eslatib o'tadi).

O'qituvchi o'quvchilardan biriga darslikdagi origami haqidagi hikoyani ovoz chiqarib o'qishni topshiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Kitlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Bu hayvon nimasi bilan g'ayrioddiy?

O'qituvchi o'quvchilardan biriga darslikdagi kitlar haqidagi hikoyani ovoz chiqarib o'qishni topshiradi.

Demak, bugungi darsda biz origami texnikasida "Ko'k kit" yasaymiz.

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi standart tuzilma bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordamchi sifatida video yo'riqnoma keltirilgan bo'lib, o'quvchilar undan foydalanib ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

Amaliy qism (25 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi..

Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).

Darsning bu qismi ham tuzilish bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholaydi.

3-dars. Rangli qog'ozdan chumoli yashash

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- qaychi va qog'oz bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish malakasini shakllantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, chizg'ich, qalam, darslik, tayyor buyum namunasi.

Tashkiliy qism (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar rangli qog'ozdan hajmli chumoli shaklini yasashlarini tushuntiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi: